

«OROLBO'YI» MILLIY TABIAT BOG'IDA OLIB BORILGAN BAHORGİ
VA YOZGI ORNITOLOGIK KUZATISHLAR

Abdikarimova M.K.¹, Jumanov M.A.¹, Nurimov B.J.¹,
Bekniyazova D.B.¹, Tleumuratov S.A.²

¹Qoraqalpoq davlat universiteti, maralabdikarimova1gm@il.com, O'zbekiston

²Janubiy Ustyurt milliy tabiat bog'i, O'zbekiston

Annotation. The article describes the materials of ornithological research conducted in the Aral region National Natural Park and its surroundings in spring and summer of 2024. The species composition, distribution, number and ecology of some species of birds have been studied by the authors.

«Orolbo'yi» milliy tabiat bog'i O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23-avgustdag'i «Respublikada o'rmonlardan foydalanish samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar tog'risida» gi PQ-4424-son qaroriga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida tashkil etilgan.

«Orolbo'yi» milliy tabiat bog'i Nukus shahridan 60 km shimolda, Bo'zatov tumani hududida dengiz sathidan 55-65 m balandlikda joylashgan bo'lib, eni 1-1,5 km, uzunligi 15 km, umumiy yer maydoni 3165,4 hektarni tashkil etadi. Janubda Dovutko'l suv havzasasi, g'arbda Nukus tumani, shimal va sharqda Bo'zatov tumani to'qayzor va agrotsenozlari bilan chegaradosh bo'lishi milliy tabiat bog'ining bioxilma-xillikga boy bo'lishini ta'minlaydi. Bu hududga har yili bahorgi va kuzgi migratsiya davrida minglab qushlar to'planishadi. Shuningdek, suvda suzuvchi va suv oldi qushlarining, ayniqsa kamyob va yo'qolib ketish arafasida turgan qushlarning uya qurish maskani hisoblanadi.

Hozirga vaqtga qadar «Orolbo'yi» milliy tabiat bog'i va uning atrofida kompleksli ornitologik tadqiqotlar olib borilmagan. Ayrim ilmiy manbaalarda bu hududning qushlari bo'yicha qisqa-qisqa ma'lumotlar keltirilgan [1, 3, 4].

Ilmiy tadqiqot ishi asosan «Orolbo'yi» milliy tabiat bog'i va uning atrofida 2024 yil bahor va yoz mavsumida olib borildi. Qushlar faunasini o'rganishda umum qabul qilingan metodlardan foydalanildi [2]. Jumladan, kuzatuv sanoq o'tkazishning marshurtli metodi (piyoda va avtomobilida), qush turlarini aniqlash va tahlil qilish uchun turlarning rasmlarini fotokamera va videooga olish; kuzatuv joylarida asosiy biotop belgilarini ro'yxatga olish v.b. Qushlarni kuzatish va sanoq o'tkazish uchun Viking firmasining 10x50 durbini va Coolpix p900 fotokamerasi orqali amalga oshirildi. Sanoq o'tkazish punktlarida kuzatish uzoqligi 10 daqiqa dan 30 daqiqa gacha davom etdi.

Ekspeditsiya davomida bizlar yirtqich qushlardan soz bo'ktargisi *Circus aeruginosus* (2 individ), toshqirg'iy *Accipiter badius* (1 individ), oq dumli suv burgut *Haliaetus albicilla* (2 individ), miqqiy *Falco tinnunculus* (5 individ) ni ro'yhatga oldik.

2024 yili 10 mart kuni kurakoyoqlilar turkumiga kiruvchi qushlardan pushti saqoqush *Pelecanus onocrotalus* ning 350 dan ortiq individularini uchratdik. Shu kuni eng kop sonda uchrangan qush turlari, masalan, 60 ta qoravoy (*Plegadis falcinellus*), 311 ta yovvoyi o'rdak (*Anas platyrhynchos*), 301 ta qashqaldoq (*Fulica atra*) individularini uchratdik.

15 mart kuni olib borilgan ornitologik kuzatishlarimiz davomida baliqchi qushlar guruhidan dengiz kaptari-*Larus genei* (87 individ), ko'l baliqchisi-*Larus ridibundus* (61), daryo chigirtchisi-*Sterna hirundo* (46), oddiy chag'alay-*Larus cachinnans* (42) va chegravva-*Hydroprogne caspia* (34) ni qayd etdik.

Butun yoz mavsumida O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi [5] ga kiritilgan, kam uchraydigan 6 tur ro'yxatga olindi. Bular: pushti saqoqush (*Pelecanus onocrotalus*) o'rganilayotgan hududda uchib o'tuvchi va uya quruvchi tur hisoblanadi. Bu tur «Orolbo'yi» milliy tabiat bog'i hududidan bahor va kuz mavsumidagi migratsiya vaqtida uchib o'tadi. Biz 2024 yil 25 iyul kuni Dovutko'l ko'lida oziqlanish vaqtida 5 individini uchratkanmiz.

Kichik qoravoy-*Phalacrocorax pygmaeus* uya quruvchi tur hisoblanib, 22 avgust sanasida bu turning 7 individini kuzatdik. Bundan boshqa kichik oq qarqara (*Egretta garzetta*) ko'chib yuruvchi va uya quruvchi tur hisoblanadi. Bu qushning 11 individi ro'yxatga olindi. Qoshiq burun-*Platalea leucorodia* (34 individ), qoravoy *Plegadis falcinellus* (48 individ) va vishildoq oqqush *Cygnus olor* ning 2 ta individini 3 polaponi bilan birgalikda qayd etdik.

Yirtqich qushlardan bu yerda miqqiy-*Falco tinnunculus* (5 individ), oq dumli-suv burgut *Haliaetus albicilla* (2 individ), soz-bo'ktargisi *Circus aeruginosus* (2 individ), toshqirg'iy-*Accipiter badius* (1 individ), oq sor-*Buteo lagopus* (1 individ) uchradi. Ayni damda bu yirtqich qushlar har doim 2 statsionar nuqtada va 2 aylanma marshurtlarda ro'yxatga olindi.

Yoz mavsumida eng ko'p songa chumchuqsimonlar turkumi ega bo'lib 20 turni o'z ichiga oldi. Shulardan qishloq qaldirg'ochi-*Hirundo rustica* (89 individ), dala chumchug'i-*Passer montanus* (59 individ), mayna-*Acridotheres tristis* (36 individ), qoraboshli jiblajibon-*Motacilla feldegg* (34 individ), Sariq jiblajibon-*Motacilla flava* (32 individ), uy chumchug'i-*Passer domesticus* (32 individ) ro'yhatga olindi. Eng kam sonda qoraboshli inuya-*Remiz coronatus coronatus* (4 individ), buxoroo chittagi-*Parus bokharensis* (3 individ), va oddiy inuya-*Remiz pendulinus* (2 individ) ni uchratdik.

Xulosa o'rnila shuni aytish mumkinki, «Orolbo'yi» milliy tabiat bog'i qushlar hayoti uchun eng qulay joy bo'lib, bahorgi va kuzgi migratsiya davrida minglab qushlar to'planishadi. Shuningdek suvda suzuvchi va suv oldi qushlarining, ayniqsa kamyob va yoqolib ketish arafasida turgan qushlarning uya qurish maskani hisoblanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

- Аметов М. Птицы Каракалпакии их охрана. – Нукус: Каракалпакстан, 1981. – 138 с.

-
2. Новиков Г.А. Полевые исследования по экологии наземных позвоночных. - Москва, 1953. - 501 с.
 3. Abdikarimova M.K., Arzibaev D.F., Ametova N.I., Jumanov M.A. «Orolbo'yi» milliy tabiat bog'inining qishgi ornitofaunasiga oid materiallar // Xorazm Mamun akademiyasi axborotnomasi. №8/1 (117). – Urganch, 2024. – B. 5-8.
 4. Abdikarimova M.K., Jumanov M.A. "Orol bo'yi" milliy tabiat bog'i va uning atrofida qish mavsumida olib borilgan ornitologik kuzatishlar. "Sog'lom turmush tarsi va tog'ri ovqatlanishni tashkil etishning zamonaviy holati va istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Qarshi, 2024. – B.140-142.
 5. Красная книга Республики Узбекистан. Животные. – Ташкент, 2019. Том 2. -215 с.

